

ABDULLA ORIPOVNING “ONAJON” SHE’RIDA ONA SIYMOSINING BADIY TALQINI**Tog‘ayeva Dilnigora Mavlon qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 3 - bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21462484>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripovning “Onajon” she’ri insoniy tuyg‘ularning eng beg‘ubor shakllaridan biri bo‘lmish ona mehri, uning sog‘inchga to‘la iztiroblari va farzandlik mehrini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek shoirning lirik hissiyotlari asosida yuzaga kelgan poetik lavhalar asarning jozibasi va asar tiliga badiiy orginallik bag‘ishlangan. Ushbu asar shoirning eng yurakka yaqin namunalaridan biri bo‘lib, unda o‘zbek ayollarining mehri va sabr toqati haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ona, shoir, bola, mehr, muhabbat, ona siymosi, orzu, she’riyat, sadoqat, tush va haqiqat, sog‘inch.

Abstract. In this article, we explore Abdulla Oripov’s poem “Onajon” (Dear Mother), which captures one of the purest forms of human emotion: a mother’s love—along with the anguish of longing and the affection of a child. The poetic imagery, born of the poet’s lyrical sentiments, lends the work its captivating appeal and artistic originality. As one of the poet’s most deeply moving pieces, the poem reflects upon the love and patience characteristic of Uzbek women.

Keywords: Mother, poet, child, affection, love, the image of the mother, dream, poetry, devotion, dream and reality, longing.

Аннотация. В данной статье рассматривается стихотворение Абдуллы Орипова «Онаджон» («Дорогая мама»), в котором запечатлено одно из самых чистых проявлений человеческих чувств — материнская любовь, а также сопутствующие ей щемящая тоска и сыновняя нежность. Поэтическая образность, рожденная лирическим настроением автора, придает произведению особую притягательность и художественную самобытность. Будучи одним из самых трогательных творений поэта, это стихотворение воспекает любовь и терпение, свойственные узбекским женщинам.

Ключевые слова: мать, поэт, ребенок, нежность, любовь, образ матери, мечта, поэзия, преданность, мечта и реальность, тоска.

Kirish qismi

Abdulla Oripov XX asr o‘zbek she’riyatining zabardast vakillaridan biri hisoblanadi. Ona haqida she’rlar va umuman ona shoir ijodidagi ayol obrazining yanada jozibadorligini mukammalashtiradi va bu timsolni oliy maqomlarga olib chiqadi. Shoirning “Onamga xat”, “Onajon”, “Ona”, “Alisherning onasi”, “Onamni eslab” singari she’rlarida ona timsolining gavdalanitirilishi har bir insoning qalbiga chuqur yetib boradi. Bunga misol qilib shoirning “Onajon” she’rini olishimiz mumkin bo‘ladi. Shoirning bu she’ri shoirning mumtoz asrlari sarasiga kiradi.

Asosiy qism

Abdulla Oripovning ushbu she’ri ona siymosi, uning beqiyos mehri, fidokorligi va farzand hayotidagi o‘rnini yuksak darajada aks ettiradi. Shoirning onasining vafotidan keying iztiroblarini yurakdan his qiladi, uning tushlariga kirib, o‘z yoniga chaqirishi, mehr bilan

bag'riga bosishi tasvirlanadi. Bu faqat shoirning shaxsiy kechinmalari emas, balki har bir insonning boshidan o'tadigan ona yo'qotish iztirobi, ruhiy bo'shliq va armondir.

Abdulla Oripov "Onajon" she'rini onasi Turdi Eronda Karvon qizi xotirasiga bag'ishladim deya takidlaydi. Undagi falsafiy idrokning va ichki tasviriy ifoda uyg'unligining nozik obrazi ona timsolida lirik qahramonning muhabbatini ifodalab turadi.

Necha kunki yo'q armonim

Kelolmayman hushimga.

Onajonim kechalari

Kirib chiqar tushimga

She'riy parchada shoirning armoni va qalbining tub-tubidagi og'riqlarini ifodalovchi poetik ko'zgu ruhiyat tasvirini tushga ko'chiradi. Asarda ona obrazi hayotining eng oliy qadriyatlaridan biri sifatida gavdalanadi. Shoir tush motivi orqali onasining mehribon qiyofasini qayta – qayta ko'z oldiga keltiradi. Bu esa onaga bo'lgan sog'inchning hech qachon so'nmasligini, ona mehri inson qalbida abadiy yashashini anglatadi. Onaning hatto umrining so'nggi damlarida ham farzandining baxti va kelajagini o'ylashi uning cheksiz fidoyiligi va buyuk qalb egasi ekanini ko'rsatadi. U o'zini tush va haqiqat o'rtasida azobda his qiladi. Onasi unga oq mato tutgan holda uni chaqiradi, bu esa o'lim va ona mehri o'rtasidagi nozik bog'liqlikni anglatadi. Ona mehr bilan bolalikni eslatadi, beshik va allani yodga soladi. Lekin birdaniga tush dahshatga aylanadi – shoirga onaning yo'qligi ayon bo'ladi va uyg'unib ketadi.

Qo'llarida oq elpig'ich

Oy nurida yaltirar

Onajonim imlab meni

Qoshlariga chaqirar

Keyingi to'rtlik esa lirik qahramonning qalbida avaylagan bir insonning ruhiy ko'rinishi namoyon bo'ladi. Shu o'rinda dog'istonlik shoir Rasul Hamzatovning "Ona tili" she'ridagi shoirning tushida o'lib qolishi bilan, Abdulla Oripovning onajon she'rida ham ruhiy o'xshashlik borligi kishini o'ziga tortadi.[3]

Birinchidan ikki shoirining ham she'rlarining sarlavhasida ona so'zi borligi, ikkinchidan ikki she'r ham qiymati jihatdan bir-biridan qolishmasligi bilan izohlanadi. Tushda uyqudagi kishi aniq va tasvirli kechinmalarining shohidi bo'ladi.[1] She'r davomida haqiqatdan onasining tushga kirishi va bu o'sha mash'um, kunni shohidi bo'lganligidan so'ng yozilgan, shoirga taskin va tasalli beradigan yodgorlik kabi bo'lib qoladi.

Shoirning tushiga keladigan bo'lsak: "Agar o'lgan odam tushda kimgadir ko'rinsa va bu o'lgan odam tabiiy ravishda o'z faoliyatini amalga oshirib, hayotini davom ettirsa, bu tush egasining to'g'ri yo'ldan ketayotganidan dalolat va bu yo'lning oxiri muvaffaqiyat, o'z maqsadiga erishishdir"[2] -deb izohlaydi.

She'r davomida Abdulla Oripov yoshlik chog'laridagi onasining mehribonchiligini eslaydi.

Qaylargadir yuguraman

Fig'onimdan chiqar dud.

Yig'lama, deb qo'llaringa

Tutqazarlar so'ng tobut.

She'r uch qismdan iborat bo'lib, har birinchi qismida ona va farzand o'rtasidagi rishtalarni turlicha yoritadi. Onaning tushga kirishi, ona mehri va ayriliq iztirobi aks etgan birinchi qismda shoir tushlarida onasini ko'radi.

Ikkinchi qismida esa ona mehri va ona jasorati gavdalanitirilgan qaynoq satrlar bilan boshlanadi. Uchinchi bo‘limda poetik lavhalar bilan boshlanib bunda. O‘z farzandining she’riy kitobini asrab avaylash va insonni qadrlash tuyg‘ulari orqali qo‘liga olgan ona obrazi bu dunyodagi eng go‘zal obrazlardan biri hisoblanadi.

U kun chetda oh chekardim
G‘ussalarning dastidan.
Sen otamga pul beribsan
Yostig‘ingning ostidan.

** ** *

Aytibsanki, onasizlik
Kelmasin hech o‘yiga.
Sarf qilingiz, menga emas,
Abdullaning to‘yiga.

Bu misralari orqali shoir, siz otamga yosti ostiga yashirib qo‘ygan pulini berganligini.

Bu bilan hatto og‘ir ahvolda ham oilasini o‘ylagan o‘zbek ayolini tasvirlagan. “Bu pulini o‘limidan so‘ng menga emas, Abdullaning to‘yiga ishlatilgilar deb aytganligi. U onasiz qolishni o‘ylamasin ” deb vasiyat qilganligini. Bu esa onaning farzandi baxti uchun o‘zini ham unutishini ko‘rishimiz mumkin. Shoir onasi to‘yi uchun pul yig‘ib qo‘ygani eslar ekan, onalik mehrining naqadar buyuk va cheksiz ekanini ko‘rsatadi. Ona o‘z dardini unutib, farzandining baxtini hamma narsadan ustun qo‘yadi. Bu holat o‘zbek onalariga xos fidokorlikning yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Balki sening qabring uzra
Ko‘karganda gul, chechak,
Ostonamga qadam qo‘yar,
Sen istagan kelinchak.

She’r onaning lirik qahramon hayotidagi o‘rnini va orzularini bayon qilish orqali, asarning qolgan qismiga ohang beradi. Abdulla Oripov onaning fidoyiligi yorqin ta’riflar bilan ifodalab, uning hayotdagi qiyin lahzalarda tasalli va madad Manbai sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Esimdadir, titrar edim
G‘amgin, bo‘lish pastida.
Kitobimni ko‘rdim nogoh
Boshginagning ostida.

** ** *

Toshday qotdim o‘shal oni
Bor toqatdan ayrilib.
-Shoir o‘g‘lim, - deding menga
Sekingina qayrilib.

Shoir g‘amgin damlaridan birida bolish tagidan, kitobi orasidan onasining suratini ko‘rib unda onasini yana bir ko‘rganday bo‘ladi. U ko‘plab xotiralarni eslaganligi, chuqur hayojonga tushganligini ko‘rishimiz mumkin. U go‘yo onasining “Shoir bo‘l, o‘g‘lim”, degan so‘nggi nasihatlarini yana eshitgandek bo‘ladi. Shoir o‘zining shoir bo‘lib yetishishida onasining duosi, ishonchi va orzulari katta ro‘l o‘rin tutganini chuqur minnatdorlik bilan e’tirof etadi.

Dilda neki jur‘atim bor,
Dilda neki hayojon,
Bari, bari senga bo‘lsin,

Senga bo'sin onajon.

** ** *

Senga bo 'lsin bor hayotim,

Nomim, shonim bir yo'la

Xotirangga ushbu she'rni

Yozdi o'g'ling Abdulla

Shoir umrining bir kun poyoniga yetishini, lekin shoir deya insonlar uni yodga olishida onasining hissasi katta ekanligini ko'p bora takrorlaydi. Bu she'r hayotining eng og'riqli haqiqatlaridan birini – onani yo'qotish iztirobini yoritadi. Shoir inson hayotining o'tkinchiligi, o'limning mohiyati haqida mulohaza yuritiladi. Shoir she'r davomida onaning kuch-quvvati va matonatini, mehrini ochib beradi. Hamda shiddatli ayol obrazini o'zida mujassam etgan, o'z bolasini himoya qiladigan o'zbek ayolini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning "Onajon" she'rida ona va bola o'rtasidagi umuminsoniy qadriyatlar va rishtalarni ta'sirchan ifodalaydi. Shoir she'rida ona siymosi yuksak badiiy mahurat bilan tasvirlangan. Sherda qo 'llangan badiiy tasvir vositalari, samimiy ohang va chuqur falsafiy mazmun ona siymosining ulug'vorligini yanada ochib beradi.

She'rning boshidan oxirigacha ona obrazi mehribon, oqila, sabrli va fidoyi inson sifatida gavdalanadi. Shu bois "Onajon" she'ri bugungi kunda ham o'z tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini yo'qotmagan, shuning uchun ham onaga bo'lgan hurmat va muhabbat tuyg'ularini yanada kuchaytiradigan asarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. "Tanlangan asarlar" – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000
2. Oripov A. Onajonim she'riyat: She'rlar va doston. – Toshkent: "Sharq". 2004
3. Ibn Siriin. Tush tabirlari. [Internet resursi]. 2001
4. Quronova D. "Adabiyotshunoslikka kirish", - Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2019